

## JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA EKSPERTIZA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 2- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10969663>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekspertiza faoliyati, uni moliyalashtirish, ekspertizani rivojlantirish uchun nimalar zarurligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekspertiza, jinoyatchilik, kriminalistik, kiberjinoyatchilik.

## INCREASING THE EFFICIENCY OF USING EXPERTISE OPPORTUNITIES IN THE INVESTIGATION OF CRIMES

**Abstract.** This article provides information about expertise, its financing, and what is needed for the development of expertise.

**Key words:** Expertise, crime, criminology, cybercrime.

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭКСПЕРТНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В РАССЛЕДОВАНИЯХ УГОЛОВНЫХ РАССЛЕДОВАНИЙ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об экспертизе, ее финансировании и о том, что необходимо для развития экспертизы.

**Ключевые слова:** Экспертиза, преступность, криминология, киберпреступность.

Bugungi kunda jinoyatlarni tergov qilish sohasida ekspertizaning zamonaviy imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Jinoyatlar yangi ko'rinishlarining paydo bo'lishi, jinoyatchilarning yangi murakkab texnika va texnologiyalar yordamida jinoyatlarni yuqori darajada mahorat va ustomonlik bilan sodir etib, jinoyat izlarini yashirishning yangi usullarini o'ylab topishlari huquqni muhofaza qilish organlariga yangi mas'uliyatlarni yuklaydi.

Huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun o'z faoliyatlarini yanada takomillashtirish bilan birga, bu faoliyatda mavjud bo'lgan kamchilik va muammolarni chuqur o'rganishlari, tahlil etishlari, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganishlari hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishlari zarur. Chunki bu kabi kamchiliklar huquqni muhofaza qilish organlarining barcha xizmatlari faoliyatlarida uchrab turadi. Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatchilikka qarshi kurash va ularning oldini olish faoliyatlarida ham ayrim muammolar uchraydi.

Sud ekspertizalarining barcha turlari yuridik fanlarning bir tarmog'i sifatida hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak va shu bilan birga, nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'lanishida muhim o'rinni egallashi lozim. Sud ekspertizasi o'zining rivojlangan zamonaviy, ilmiy-texnikaviy yutuqlariga ega bo'lib, jinoyat ishlari bo'yicha adolatni yuzaga chiqarishda odil sudlovni demokratik asosda taraqqiy etib borishda qonuniylikni mustahkamlaydi va muhim shart-sharoitlarni belgilaydi.

Ammo, ta'kidlash joizki, kriminalistik ekspertizalarning mavjud imkoniyatlariga qaramasdan bu sohada ham ayrim muammolar uchraydi. Jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, sud muhokamasi, tergov faoliyati jarayonida va ekspert-kriminalistika xizmatlarining faoliyatidagi xatolar bilan bog'liq muammolar nazariyotchi huquqshunoslar va huquqni muhofaza qilish organlarining amaliyotchi xodimlari e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Hali, 1985-1986 yillardayoq tergov harakatlaridagi xatolar va buning natijasida yuzaga keladigan og'ir oqibatlar, ayniqsa ushbu xatolarni vujudga keltiradigan sabablar va sharoitlarni o'rganish, tahlil etish va bartaraf etish yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlari va nazariyotchi olimlar birgalikda tadqiqot ishlari olib borganlar.

Haqiqatdan ham, mamlakatimizda inson huquqlari ustuvor, uning manfaatlari qadrlanayotgan bir paytda jazo berishda uning taqdiriga ozgina beparvolik ham kelgusi hayotini hal etilajagini unutmasligimiz darkor.

Ekspert tomonidan kriminalistik ekspertizalarni o'tkazish jarayonida jinoyat-prosessual qonun talablarining buzilishi yoki kriminalistik ekspertiza tadqiqotlarining bir tomonlama va noto'liq o'tkazilishi ushbu faoliyatdagi xatolarning maxsus belgisi hisoblanmaydi. Haqiqatan ham, kriminalistik ekspertiza tadqiqotlarining to'liq o'tkazilmasligi ekspertning o'z xizmat vazifasiga sovuqqonlik bilan qarashi natijasi ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ekspertning tadqiqot jarayonida yo'l qo'ygan xatolari yoki uning boshlig'i yoxud tergovchi tomonidan aniqlanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, ekspertning xato xulosa berishi ekspert tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar sirasiga kirmaydi. Chunki ekspertiza tadqiqotlari ekspert tomonidan shoshma-shosharliksiz, ilmiy asoslangan an'anaviy metodikalarga va boy tajribaga asoslangan holda, tartib bilan o'tkazilishi, bunday tadqiqotlar natijalari to'g'ri baholanishi va kerakli yakuniy xulosalar to'g'ri shakllantirilgan bo'lishi shart.

Ekspertiza tadqiqotlari uchun keltirilgan materiallar, dastlabki ma'lumotlar xato, noto'g'ri yoki soxtalashtirilgan bo'lsa, yoki tadqiqot ob'ektlari ko'rilayotgan jinoyat ishiga aloqador bo'lmasa, o'tayotgan ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda xatolarga yo'l quyiladi. Bunday holatlarda ekspertning xatosi to'g'risida fikr yuritish mumkin emas, chunki bunday xato ekspertiza tayinlangan organning xatosi bo'ladi yoki ataylab sodir etilgan noto'g'ri harakat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ekspertiza tadqiqotining bugungi kun holati haqida gapiradigan bo'lsak, bu borada shu davr qadar sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilganini va hozirda ham jadal sur'atlarda davom ettirilayotganligini takidlashimiz mumkin. Sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish, tashkiliy, ilmiy-uslubiy va axborot bilan taminlash sohalarida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 25moddasida sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish masalalariga bag'ishlangan. Davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyati O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha sud ekspertizalarini o'tkazganlik uchun to'lov undirishga haqlidir. Bunda sudda da'vo taqdim etgan hamda da'voni quvvatlayotgan davlat organlari davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan o'tkazilgan sud ekspertizalari uchun to'lovdan ozod etiladi. To'lov miqdori va mazkur mablag'larni sarflash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Boshqa tashkilot xodimlari va boshqa jismoniy shaxslar tomonidan sud ekspertizalari o'tkazilganligi uchun to'lov sud ekspertizasini tayinlangan organ (shaxs) tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat Bojxona qo'mitasi va shu kabilar tizimidagi davlat sud ekspertiza muassasalari va ekspertiza bo'linmalari Davlat byudjeti va boshqa qonun bilan ruxsat etilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-son Qaroriga binoan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlarining qo'shimcha daromadlari o'zining faoliyati, ko'rilayotgan holatda sud ekspertlik faoliyati ixtisosligi bo'yicha turli tovar (ish, xizmat) ishlab chiqish va realizasiya qilish hisobiga olinishi mumkin.

Ekspertiza muassasasi faoliyatini moliyalashtirish deganda, unga prosessual qonunchilik bilan yuklatilgan barcha vazifa va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy vositalarni ajratish, ya'ni kadrlar tarkibini ta'minlash, ekspert kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, instrumental apparat texnik vositalarni yangilash, xizmat binolari va jihozlarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash, sud ekspertizalarini o'tkazish uchun zarur sarf materiallarini olish va shu kabilar uchun kerakli mablag'larni ajratish tushuniladi. Sudda jinoiy va ma'muriy ishlarni ko'rish doirasida ixtiyoriy ekspertizalar va ekspertiza tadqiqotlari davlat sud ekspertiza muassasalarida bepul o'tkazilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-yanvardagi "Davlat sud-ekspertiza muassasalari yoki boshqa korxonalar, tashkilot yoxud muassasa tomonidan sud ekspertizalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida"gi 5-son Qarorining 8-bandiga asosan, o'tkaziladigan sud ekspertizalarining tarifkasiya (to'lov miqdori) sud-ekspertiza muassasasi tegishli bo'lgan davlat organiga tegishli bo'ladi. Tushgan mablag'larning sarflash tartibi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan. Bu holda, sudda da'vogar yoki javobgar bo'lgan davlat organlari davlat sud-ekspertiza muassasalarida o'tkaziladigan sud ekspertizalari uchun to'lovlardan ozod etiladi.

Barcha davlat sud-ekspertiza muassasalari idoraviy tegishliligi va bo'ysunish darajasidan qat'i nazar, jismoniy va yuridik shaxslar uchun shartnoma asosida ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha sud-ekspertizalarini o'tkazish uchun to'lovlarni olish huquqiga ega. Sud-ekspertiza muassasasining huquq va majburiyatlarini belgilovchi hamda buyurtmachi (jismoniy yoki yuridik shaxs) bilan munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lib, qonunda belgilangan tartibda tomonlar o'rtasida tuziladigan fuqaroviy-huquqiy shartnoma hisoblanadi.

Agar ekspertiza fuqarolik yoki xo'jalik ishlari bo'yicha sudlarning tashabbusi bilan o'tkaziladigan bo'lsa, sud bilan shartnoma tuzish talab etilmaydi. Bunday ekspertizani o'tkazish va uning uchun to'lovlarni undirish uchun asos bo'lib, sudning to'lovchini aniqlab beriladigan ajrimi hisoblanadi.

Buyurtmachining tuzilgan shartnoma bo'yicha o'tkazilgan sud ekspertiza ham sudning topshirig'iga ko'ra preyskurant asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan faoliyatdan keladigan daromadlar, shuningdek bu daromad hisobiga olingan mulk ekspertiza muassasasining tasarrufiga o'tadi hamda alohida balansda hisobga olinadi.

Xadicha Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazining 2011 yil 2 martdagi Nizomida sud ekspertizalarini o'tkazishda pullik xizmat ko'rsatish tartibi belgilab qo'yilgan.

To'lovlar Adliya vazirining o'rinbosari va Moliya vazirining o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan, Xadicha Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazida pullik ekspertizalar va boshqa maxsus tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha Tarif asosida amalga oshiriladi.

Xadicha Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazi O'zR FKga binoan mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi, bankda o'zining hisob raqamiga ega, sarf materiallari, maxsus ekspertiza jihozlarini sotib olishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 2001 yil 21 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika xizmatining ish faoliyati bo'yicha Yo'riqnomada pullik ilmiy-tadqiqot va axborotli xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda IIV ekspert-kriminalistika bo'linmalari tomonidan o'tkaziladigan barcha sud ekspertizalari ekspertiza tadqiqotlarining turi va ekspertiza tayinlovchi shaxs (organ) turidan qat'i nazar bepul asosda amalga oshiriladi. Olinadigan qo'shimcha moliyaviy vositalar va ularning sarflash bo'yicha qo'shimcha daromadlar va xarajatlar smetasi tuzilishi hamda bu smeta qonunda belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozim. Sud ekspertizalarini boshqa tashkilot yoki boshqa jismoniy shaxslar tomonidan o'tkazilishi, qonunchilikda belgilangan tartibda, ekspertiza tayinlagan shaxs (organ) tomonidan to'lanadi.

Ekspertiza doimo rivojlanishda bo'lishi zamon ilmi bilan hamnafas yashashi lozim. Bu o'rinda, avvalo, mamlakatimizda ekspertizani rivojlantirish uchun ilmiy markazlar tashkil etish va uning samarali ishlashini ta'minlash lozim. Mamlakatimizda bu boradagi ishlar ancha salmoqli.

Bundan tashqari, ekspertizaning zamonaviy imkoniyatlarini, horijiy davlatlar tajribasini doimiy o'rganish, ular bilan o'zaro hamkorlik qilish, bizda mavjud ijobiy tajribalarni ularga o'rgatish va shu o'rinda ulardagi yutuqlarni amaliyotga keng tatbiq etish ham ushbu soha samaradorligini oshiradi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq sud-ekspertlik faoliyati sohasida chet davlatlarning tegishli organlari va muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Xalqaro jinoyatchilikning rivojlanish jarayonlari, uning globallasuvi, sud ekspertizalarining internasionallashtirilishi, xalqaro axborot-ekspertlik bazalarining yaratilishi sud-ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikni keltirib chiqaradi.

Sud-ekspertiza sohasidagi xalqaro hamkorlik o'zaro tajriba almashish, xalqaro konferensiyalar tashkil qilish va o'tkazish, xorijda malaka oshirish, xorij tajribalaridan kelib chiqib ekspertiza tadqiqotlarining yangi turlarini joriy qilish, yangi ekspertiza metodikalarini shakllantirish va mavjudlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini qo'llash, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash, qurollarni sertifikatlash va shu kabi shakllarda amalga oshiriladi.

## REFERENCES

1. R.Alimova, S.Otaxo'jaev. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari (o'quv qo'llanma); -T.; 2001 y
2. Kriminalistik ekspertizalarni o'tkazishdagi xatolar: O'quv-metodik qo'llanma / Sh.X.Xasanov, S.S.Nuriddinov, A.D.Xusanov, I.E.Eshmetov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 68 b.

3. Xasanov Sh.X. Ballistik ekspertizalar xulosalarining namunaviy to'plami: O'quv-amaliy qo'llanma / Sh.X.Xasanov, A.D.Xusanov, T.B.Mamatqulov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 106 b.
4. Daktiloskopik ekspertizalar xulosalarining namunaviy to'plami: O'quv-metodik qo'llanma / Tuzuvchilar N.T. Ismailova, X.A.Turabbaev, L.Yu.Yugay, A.D.Xusanov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 40 b.
5. Sud ekspertizasi bo'yicha tavsiyalar: O'quv-amaliy qo'llanma. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 211 b.